

**“TASVIRIY SAN'AT FANING RIVOJLANISHI VA  
ZAMONAVIYLASHUVI”**



***Qayumova Parizoda Siroj qizi***

*Buxoro viloyati Kogon shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada tasviriy san'atning rivojlanish tarixi hamda rivojlanishiga turtki bo'lgan omillar xaqida ma'lumotlar keltirilgan.



***Kalit so'zlar:*** rang, tasvir, obraz, maqbara, shakl, tasvir, yaqqol, figura, buyumlar.

Tasviriy san'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni ob'yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga. o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy kiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzuomidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat

kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marxumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida Tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gor devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'yxayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan (qarang Ibtidoiy san'at). Ijtimoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi Tasviriy san'at rivojida muhim o'rinni egallaydi.

- Men o'zimni judayam baxtli deb bilaman, zero men boshqalar his qila olmaydigan tuyg'ularni his eta olaman. Dunyomizdagi barcha go'zalliklar: muhabbat, yaxshilik hamda rahmdillik. Men – rassomman va men ko'p hodisa hamda jarayonlarni chuqur va o'tkir his etaman. Men bularning barchasini o'zimdan o'tkazaman va bu menga ijod qilish uchun turtki beradi.

San'at insonni ma'naviy qiyofasini shakllantiradigan, unga hayotiy kuch bera oladigan buyuk ne'mat. Dunyoni go'zallik qutqaradi, go'zallik esa ijod, san'at mahsuli.




Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz ilgari surgan beshta muhim tashabbusning asosiy yo'nalishidan biri yoshlar o'rtasida aynan san'atni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. 10 yoshimda rassomchilikga qizishimni inobatga olib ota-onam meni birinchi ustozim Zinfera Solixovnaning to'garaklariga berishdi. Ustozim tasviriy san'at orqali mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatib, unda chiroyli, go'zal ma'naviy dunyosini yaratib keldi. Shuningdek, ustozlarim Atoyev Baxrom va Adolat Soliyevnalardan ham ta'lim olib mahoratimni oshirishga



Musharraf bo'ldim.

Buxoro shahridagi muqaddas qadamjolar, xususan, Ark qo'rg'oni, Labi havuz va Minorai kalonda ijodiy ishlarim ko'rgazmalari tashkil qilingan. Rasmlarni tomosha qilish jarayonida ko'plab tomoshabinlar estetik zavq oldilar.



Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi insonlarning og'irini yengil qilish, turmush tarzini yaxshilashga qaratilayotganligi hechkimga sir emas. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, insonlarning fikirlashi, o'ylashi kechagi kunnikidan butkul farq qiladi. Davlatimiz mustaqillika erishishi bilan hamma sohalar qatori ta'lim tarbiyaga bo'lgan e'tibor ham chetda qolib ketgani yo'q. Bugun maktab o'quvchilari o'z ona tillari bilan birga ingliz, rus va boshqa tillarda so'zlashishlari uchun ta'lim jarayonida hamma sharoitlar muhayyo qilingan. Zamonaviy darsliklar, o'quv xonalari, sport maydonchalari, xullas o'qib o'rganaman degan o'quvchiga barcha sharoitlar yaratilgan. Bularning barchasi yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning sayi harakatlari bilan yaratilayotganligini unutmashimiz zarurdir. O'zbek sanati qadimiy tarixga ega. Xozirgi O'zbekiston hududida ibtidoiy jamoa davridayoq odamlar yashaganligi o'z isbotini topgan. Ular yashagan manzillardagi qoya suratlar, bronzadan yasalgan turli hildagi taqinchoq, mehnat va urush qurollari ibtidoiy jamoa davri kishisining xayotini bilishga yordam beradi. Bu surat birmuncha sodda bo'lishiga qaramay ibtidoiy jamoa davri kishilari xayoti, ularning yovvoyi xayvonlarni ov qilayotgan vaqti ishonarli talqin etilgan. Suratlarda chopib borayotgan yovvoyi kutos, shoxli buqalar va niqob ostiga yashirinib xujum qilayotgan odamlar tasviri orqali ibtidoiy jamoa davri rassomi shu ov manzarasidagi kuchli xarakat va xayojonni ustalik bilan kursata olgan. Rasmda, ayniqsa, hayvonlar tasviri ifodali chiqqan. Ulardagi kuch, epchillik xayotiy talqin etilgan. G'or devorlariga ishlangan suratlar O'zbekistonda, jumladan Boysun va Termez tumanlari, Samarkand, Toshkent, Jizzax, Xorazm, Fargona tumanlaridan arxeologlar tomonidan ko'plab topilgan. Asosan xayvonlar tasviri yoki ov manzaralari in'ikos etgan. Shu bilan birga uy hayvonlari xam tasvirlangan. Bu tasvirlar ibtidoiy jamoa tuzumidagi utroq xolda xayot kechirayotgan odamlarning tevarak-atrofnii uziga buysindirish, ular tafakkurining taraqqiy etib borayotganini tushinishda muhim ro'l o'ynaydi.

Eramizdan avvalgi asrning oxirlari va yangi eraning boshlarida O'zbekistonla kulolchilik borasida jiddiy rivojlanish sezildi. Turli shakldagi xum va kuzachalar qo'lda bajarilgan. Ularning tashki bezagiga e'tibor berilganligi seziladi. Keyinchalik xum yuzasi chiziqli naqshlar bilan bezatila boshlagan. Bu davrlarda oltindan, kumushdan bezak va amaliy buyumlar ishlash san'ati xam keng tarqala boshlagan. Tasviriy san'atda xam mavzu kengaya borganligini ko'rish mumkin. Bu o'rinda yuz manzaralarini aks ettiruvchi burtma tasvirlar, jangchilar obrazi dikkatga sazovordir. Quldorlik davrida xam O'rta Osiyoda san'atga qizikish kuchli bo'lgan. Boylarning uyi, ibodatxona devorlari suratlar, naqshlar bilan bezatilgan. Xorazmda topilgan yodgorliklar ayniqsa, Tuproqqaladan (III-IV asr) qo'lga kiritilgan xayvon va devoriy rasmlar qadimgi o'zbek san'atini bilishda muhim daliliy material bulib xizmat kiladi.

VI-VIII asrlar xalq san'ati, madaniyat tarixida ko'tarilish davri bo'ldi. Bu asrlarda ko'plab yirik monumental inshootlar, xashamatli binolar qurildi. Varaxsha

(Buxoro vil.), Afrosiyob (Samarqand vil.) dagi saroy qoldiklari, ularning devorlarida ishlangan suratlar yaratilgan xaykallar yuksak mahorat bilan ishlanganligi hozir xam kishini xayratga soladi. Abu Rayxon Beruni, Muxammad Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farobiy yashagan vaqtlar xam bizga juda ko'p nodir yodgorliklar qoldirdi. Bu asarlarda memorchilik yetakchi urinni egalladi. Shu davrning yodgorliklaridan biri bu Samoniylar maqbarasi uz davrining estetik falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan. Temur va Temuriylar davrida yaratilgan Bibixonim maschiti, A.Temur maxbarasi, Ulug'bek madrasasi va rasad xonasi, Shoxi -Zinda ansambli - bularning xammasi xalq badiiy merosining yorqin saxifasini tashkil etibgina qolmay, balki jaxon tasviriy san'ati tarixi saxifalarida uzining faxrli o'rnini egallaydi. Bu davrda miniatyura san'ati borasida ham sezilarli jonlanish bo'ldi. Shu davrda yashab ijod etgan Komoliddin Bexzod, Maxmud Muzaxxib, Muxammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar miniatyura san'tining nodir namunalarini yaratib qoldirdilar. Bular orasida ayniqsa, K.Bexzodning faoliyati diqqatga sazovordir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda xalq dekorativ-amaliy san'ati yetakchi urinni egalladi. Bu san'at shu davr kishilari uchun voqelikni, tevarak atrof guzalligini yuksak poetik shakllarda aks ettiruvchi, ularning xayot, guzallik tushunchalarini ifodalovchi birdan bir sanat turi bo'lib qoldi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak tasviriy san'atni buyuk tarixi va rivojlanishiga tarixiy dalil va ibotlangan hamda saqlanib qolgan dalillar tasviriy san'atni qanchalik tarixiy ahmiyatga ega ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Baymetov, B. B., & Muratov, K. K. (2020). Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology, 224-231.
2. Kokiyeu, B.B. (2020). Present-day problems of drawing science. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), 203-205.
3. Muradov Sh.K., Ko'kiyeu B.B. (2020). QIYSHIQ BURCHAKLI YORDAMCHI PROYEKSIYALASH BILAN BISSEKTOR TEKISLIGIDA YECHILADIGAN POZITSION MASALALAR YECHIMINI TOPISH. TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI, 2(23), 10-12.
4. Kokiyeu, B.B. (2020).
5. Kokiev, B.B. (2020). The importance of pedagogical techniques in teaching assistive design. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (2), 182-18